

BUXORO GIDRONIMLARINING ETIMOLOGIK TADQIQI

Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi

TerDPI 1-kurs magistri

Annotatsiya

Maqolada Buxoro gidronimlarining leksik-semantik xususiyatlari tarixiy manbalar asosida o'rganilgan. Bir leksemaning turli davrlardagi turlicha variantlari etimologiyasi o'rganilib chiqildi va qiyosiy tadqiq qilindi. Shu bilan birgalikda maqolada gidronimlarning hozirgi zamon tilshunosligidagi ahamiyati xususidagi qimmatli fikrlar bayon etilgan

Kalit so'zlar: gidronim, etimologiya, gidronomiya, leksema, sema, tadqiqot, daryo, anhor, toponimik transfer.

Аннотация

В статье исследуются лексико-семантические особенности гидронимов Бухары на основе исторических источников. Изучены различные варианты лексем в разные периоды, их этимология и проведён сравнительный анализ. Также в статье рассматривается значимость гидронимов в современном языкознании, приводятся ценные мнения по данной теме.

Ключевые слова: гидроним, этимология, гидронимия, лексема, sema, исследование, река, канал, топонимический трансфер.

Annotation

The article explores the lexical-semantic features of Bukhara hydronyms based on historical sources. It examines the various variants of lexemes across different periods, their etymology, and comparative analysis. Additionally, the article highlights the significance of hydronyms in modern linguistics, providing valuable insights on the subject.

Keywords: hydronym, etymology, hydronymy, lexeme, sema, research, river, canal, toponymic transfer.

Gidronomiya tilshunoslikda nisbatan kam o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, bugungi kunda sohani rivojlantirish, tadqiq qilish har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gidronimlar katta-kichik tabiiy va sun'iy suv inshootlari: okean, dengiz, daryo, ko'l, chashma, quduq, suv omborlari va boshqalarning nomlari bo'lib, tilshunoslikning leksikologiya bo'limida o'rganiladi. Shuningdek, gidronimlar tarix, geografiya, geologiya, etnografiya kabi bir qator

fanlarning ham tadqiqot obyekti sanaladi.

Tilshunos olim Nosirjon Uluqov suv obyektlarining nomlari gidronimlar, ularning majmui gidronomiya deb aytilishini ta'kidlaydi¹. Ko'rinib turibdiki, gidronomiya fan sifatida o'zining tadqiqot obyekti, o'rganish usul va uslublariga ega tilshunoslikning mustaqil bo'limidir.

Tarixdan ma'lumki, madaniy turargohlar, qishloq va shaharlar, asosan daryo va ko'l bo'ylarida, suvloq joylarda bunyod etilgan. Yoki shaharlar aholisi uchun sun'iy suv inshootlari, hovuzlar, quduqlar qazilgan. Ayrim aholi manzilgohlari ana shu suv havzalari nomlari bilan nomlangan. Tarixshunos olim Temur Shirinov bu borada "Avesto"dagi ma'lumotlarga tayanib quyidagilarni yozgan:

"Avesto"da oliy ma'bud Ahuramazda eng sara o'n beshta mamlakatni yaratganligi va bular ichida yurtimiz hududlarida joylashgan "Arianom Vaychax" (Amu va Sir daryolari havzasi), "...ilohiy, toza, poklangan sug'udi" (Zarafshon daryosi havzasi), "...ajoyib tog'lari baland ko'tarilgan Baxdi" (Amudaryo havzasining yuqori oqimi) bor. Ma'lumki, "Avesto" yodgorligi miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga taalluqlidir². Ushbu ma'lumotlarga tayanib ayta olamizki, ba'zi suv inshootlarining nomlari ular joylashgan hudud nomlaridan ham qadimiyroqdir. Jumladan, miloddan avvalgi II-I asrlarga tegishli yozma yodgorliklar, Strabon, Arrian, Ruf Kursiy asarlarida ham Oks yoki Araks (Amudaryo), Yaksart (Sirdaryo), Politimet(Zarafshon) singari daryolar haqida ma'lumot berilgan.

982-983-yillarda noma'lum muallif tomonidan yozilgan "Hudud ul-olam" asarida ham Buxoro viloyati hududidagi bir qator toponimlar, xususan, gidronimlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asarda Zarafshon daryosining Buxoro suvi deb atalishi shaharning eng katta va sersuv daryosi Zarafshon daryosi bo'lganligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Muhammad ibn Ja'far an Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Zarafshon daryosi Haromkom suvi tarzida ishlatilgan. Bu nom daryo suvlarining ayrim hududlarda ichimlik uchun yaroqsiz bo'lganligi sababli qo'yilgan bo'lishi mumkin. Daryo suvlaridan, asosan, qishloq xo'jaligi, ba'zan esa baliqchilik maqsadida foydalanilgan. Tarixiy asarlarda Zarafshon daryosi yana Politimetos (yunon-rim manbalarida), Sug'd daryosi (qadimgi Sug'diyona shahri yoki Sug'd qabilasi nomi bilan atalgan bo'lishi mumkin), Ko'hak daryo (daryo suvining rangi bilan bog'liq bo'lishi mumkin) nomlari bilan atalgan.

Boburning "Boburnoma" asarida Zarafshon daryosi Ko'hak nomi bilan tavsiflangan. Bu nom fors-tojik tilida "ko'h"- "tog'", -ak- kichraytish affiksi bo'lib, tog'cha yoki tepalik ma'nolarini anglatgani bilan izohlanadi.

¹ Nosirjon Uluq'ov. O'zbek tiligidronimlarining tarixiy lisoniy talqini. Toshkent. Fan. 6-bet

² Temur Shirinov. Tariximiz etyudlari. Toshkent. Sharq 2014 113-bet

Olim Zohid Madrahimov o'zining "Tarixiy toponimika" o'quv qo'llanmasida Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asariga tayangan holda Zarafshon daryosi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Haromkom suvi Boykandga keladi. Boykandda qamishzor va katta-katta suv halqoblariga tutashadi. Bularni "Borgini farox" – keng havz deb ataydilar va yana Qorako'l deb ham ataydilar³. Bu o'rinda Qorako'l daryo Zarafshon daryosi tizimlaridan biri bo'lib, u hozirgi Qorako'l tumani hududida joylashgan bir nechta katta-kichik daryo va soylarning umumiy nomini anglatgan. Bu nom daryo suvining rangidan kelib chiqib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Chunki daryo atrofi qamishzor va botqoqliklardan iborat bo'lganligi bois uning suvi qora rangda bo'lgan. Qorako'l daryo joylashgan hudud atrofidagi qishloqlar shu daryo nomi bilan atalgan va keyinchalik tarixiy topononimik transfer natijasida daryo nomi hudud nomiga aylangan. Hozirgi kunda Qorako'l daryosidagi suv oqimi Zarafshon daryosi suvlarining kamayishi, daryo hududida turli xil sug'orish inshootlarining barpo etilishi hamda mintaqadagi tabiiy iqlim sharoitlarining o'zgarishi sababli kamayib borsa ham tuman nomi sifatida saqlanib qolmoqda.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda joylashgan jami 12 ta ariq va anhorlar hamda ularning nomlanishi haqida so'z yuritilgan bo'lib, ularning eng kattasi Karmina anhuri, ikkinchisi Shopurkon anhoridir. Rivoyat qilinishicha, Eron hukmdorlaridan bo'lgan Kirsoning o'g'illaridan biri otasidan arazlab Buxoroga keladi va bu yerda uni yaxshi kutib olishadi. Eron tilida "pur" - "o'g'il, voris" degan ma'nolarni anglatgan bo'lib, yosh shahzodani Shopur – Shohning o'g'li deb ataydilar. Shopur ov qilishni juda yaxshi ko'rardi. Shu sababli ov uchun mo'ljallangan suvsiz ovloq joyda katta anhor qazdiradi va uning atroflarida qasr hamda qishloqlar barpo qiladi. Buxoro aholisi anhorni Shopurkon – shoh o'g'lining suvi deb nomlaydi. X asrga tegishli ayrim yozma manbalarda kon, kom, shon, jon, gon so'zlarining suv so'zi bilan sinonimlik hosil qilganini ko'rishimiz mumkin. Bu borada T.Nafasov va V.Nafasovalarning "O'zbek tili toponimlarining izohli lug'ati"da quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan:

...Namangan, Zarafshon, Badaxshon, Ardaxshon, Sherjon nomlarining so'nggi qismi – gan, -gon, -kom, -kan, -kon, -jon, -shon sozlari suv, daryo ma'nosidagi so'zlardir. "Shohnoma"da Amudaryo Ob nomi bilan tilga olingan. Rud, daryo, ob, suv so'zlari ham bir xil ma'noda qo'llanilgan⁴. Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilsak, yuqorida keltirilgan rivoyat haqiqatga yaqin bo'lishi mumkin. Tarixiy evolutsiya natijasida "Shopurkon" so'zi hudud nomiga "Shofirkon" tarzida transfer bo'lgan. Ba'zi manbalarda "Shofirkon" so'zi eron tilidan olingan bo'lib, "shoh"- "bosh", "asosiy", "pur"- "to'la", "to'kis" yoki "ko'p", "kon" – "suv" ma'nolarini anglatib, "suvi ko'p bo'lgan asosiy daryo" semasini ifodalagan. Qadimgi fors manbalarida esa "Shofirkon" leksemasi "shoh" va "farkon" yoki "firkon" shaklida talqin qilinib, hukmdorga tegishli hudud ma'nosini ifodalagan. Ba'zi olimlar Shofirkon so'zining ildizi qadimgi so'gd tiliga borib taqalishini taxmin qiladilar. Qadimgi so'g'd tilida "firkon" so'zi "qulay joylashuv",

³ Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. Toshkent. Navro'z. 2017. 35- bet

⁴ To'ra Nafasov, Vazira Nafasova. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. Toshkent. Yangi asr avlodi 2007. 5-bet

“serhosil yer” semalariga ega bo‘lgan. Shuningdek, hozirgi izohli lug‘atlarda bu so‘zning arabcha “shofar” – “shifo” hamda “kon” – “boylik”, “manba” leksemalarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgani haqida ma’lumotlar beriladi. Ushbu fikrga ko‘ra, Shofirkon davolovchi joy, shifo manbai degan ma’nolarni ifodalashi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Buxoro viloyatidagi ba’zi gidronimlar shahar tarixidan ham qadimiyroqdir. Ular tarixning turli davrlarida turlicha nomlangan hamda vaqt o‘tishi bilan leksik yoki fonetik o‘zgarishlarga uchragan. Shu bilan birgalikda ayrim suv inshootlari nomlari hudud nomlariga transfer bo‘lgan va hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Buxoro gidronimlarining bugungi kundagi tadqiqi o‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi rivojiga xizmat qiladi. Shu bois bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar bugungi kun fanida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirjon Uluqov. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy talqini. Toshkent. Fan.
2. Temur Shirinov. Tariximiz etyudlari. Toshkent. Sharq 2014
3. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. Toshkent. Navro‘z. 2017.
4. To‘ra Nafasov, Vazira Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent. Yangi asr avlodi 2007.
5. Omonulla Bo‘riyev tarjimasi. Hudud ul-olam. Toshkent. O‘zbekiston. 2008.